

Qurilishni tashkillashtirish va texnologiyasi



Qurilishni tashkillashtirish va texnologiyasi kafedra mudiri

Yunusova Farida Raxmonberdievna

Kafedra mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Tel.: +99871-237-19-97

Email: technology_water.construction@tiame.uz

Kafedra 1929-yilda «Oʻrta Osiyo irrigatsiya va suv xoʻjaligi instituti» («Среднеазиатский институт ирригации и водного хозяйства» SAIIVX) tarkibida «Gidromelioratsiya ishlarini tashkil qilish va mexanizatsiyalashtirish» keyinchalik «Gidromelioratsiya ishlarini tashkil etish va texnologiyasi» nomi bilan tashkil etilgan. Kafedraga 1929-1945-yillarda professor. V.V. Apolosov, 1945-1966-yillarda professor. Ye.G.Pospelov, 1966-1982-yillarda professor. A.G.Ostankov, 1982-1989-yillarda dotsent A.M.Valijonov, 1989-1993-yillarda dotsent P.U.Aliqulov, 1993-1999-yillarda dotsent N.R.Rahmatov, 1999-2004-yillarda professor B.B.Hasanov, 2004-2012-yillarda dotsent Gʻ.T.Davranov, 2012-2019-yillarda dotsent L.X.Irmuxamedova rahbarlik qilgan. Kafedrada professorlar Ye.F.Bulaevskiy, V.S.Shuvaev, A.G.Ostankov, dotsentlar E.G.Travin, M.M.Shapshal, Z.I.Shvab, K.K.Shubladze, E.M.Ostrovskiy, B.B.Korjavin, A.Ya.Sayganov, katta oʻqituvchilar A.N.Markanov, V.A.Marxlevskiy, N.V.Rahimova faoliyat yuritgan. N.P.Kiselev, L.A.Gavrilenko, P.A.Ostankov, B.B.Xasanov uzoq yillar davomida samarali mehnat qilishgan. Ilmiy-taqqotlar oʻtkazish va ularning natijalarini ishlab chiqarishga tadbiq qilish sohasida kafedrada oʻziga xos tajriba mavjud boʻlib, Katta Fargʻona kanali qurilishi va Mirzachoʻlni oʻzlashtirishdan boshlab, hozirgi davrgacha kafedra professor-oʻqituvchilari oʻzlarining ilmiy yechimlarini xalq xoʻjaligiga tadbiq qilishni davom ettirib kelmoqdalar. Professor V.F.Bulaevskiy rahbarligida Fargʻona kanalida suvning tuproqqa shimilib isrof boʻlishining oldini olish uchun uni quyma beton bilan qoplash texnologiyasi ishlab chiqilgan. Olimlar B.B.Korjavin va N.V.Marxlevskiy 1970-yillarda grunt toʻgʻonlarni Oʻzbekiston sharoitida «Gidromexanizatsiya» usuli bilan qurish texnologiyasi va uskunalarini yaratib, ishlab chiqarishga tadbiq qilganlar. N.P.Kiselev va P.A.Ostankov beton ishlari sohasidagi ilmiy ishlari natijalarini Qarshi magistral kanali, xoʻjaliklararo kanallar va xoʻjaliklar ichki sugʻorish tarmoqlari qurilishida qoʻllashgan. Dotsent A.Ya.Sayganov va aspirant B.B.Hasanov 1980-1986-yillarda sugʻorish va zax qochirish tarmoqlari qurilishi uchun moʻljallangan armaturasiz beton quvurlarni tayyorlashning yangi texnologiyasi va uskunasi yaratib, ishlab chiqarishga tadbiq etganlar. Professor A.G.Ostankov va assistent A.R.Muratov 1980-1990-yillarda gidromeliorativ qurilish uchun yigʻma temir-beton buyumlarni tayyorlash texnologiyasini yaratganlar. 2023-yil fevralda kafedra nomi «Qurilishni tashkillashtirish va texnologiyasi»ga oʻzgartirildi. 2021-2023-yillar davomida kafedra tarkibidagi «Qurilish materiallari va gruntlar mexanikasi» laboratoriyasi

rekonstruksiya qilindi va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlashga tayyorlandi. Bu o'z navbatida kafedrada yangi "Qurilishda sifat nazorati" bakalavriyat ta'lim yo'nalishini ochish imkonini berdi. 2023-yil 02-noyabr kuni Avstriyaning "FELDER GROUP" kompaniyasi bilan hamkorlikda kafedrada "Yog'ochga ishlov berish innovatsion o'quv markazi" tantanali ochildi va "Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi" bakalavriyat ta'lim yo'nalishida kadrlar tayyorlash imkoniyati yaratildi. Markazda yog'ochga ishlov berish jarayonlari avtomatlashtirilgan zamonaviy uskunalar, kompyuter orqali raqamli dasturlar yordamida boshqariladigan dastgohlar va klassik uskunalarda bajariladi. 1991-2023-yillar davomida o'quv-uslubiy va ilmiy izlanishlar natijalari bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan 15 ta darslik, 20 ta o'quv qo'llanma, 10 ta monografiya, 150 dan ortiq ilmiy maqola, 12 ta ixtiro va patentlar, 50 dan ortiq metodik ko'rsatmalar, 10 dan ortiq tavsiyalar va informatsiya bukletlari chop etildi.

[Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash fakulteti](#) [O'qitiladigan fanlar](#) [Ilmiy ishlar](#) [Tadqiqotchilar](#) [Hamkorlar](#) [Kafedra xodimlari](#) [To'garaklar](#) [Dars jadvali](#) [Aloqalar](#)